

“QO’RQUT OTA” VA BOSHQA DOSTONLARIDAGI TURKIY XALQLAR
MIFOLOGIYASI TAHLILI

Avazberdiyeva Bahora

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15062380>

Anotatsiya. Maqolada turkiy xalqlarning dostonlari va afsonalari asosida turkiy xalqlar mifologiyasi tahlil qilindi. “Qo’rqut ota” kabi boshqa bir qator turkiy xalqlar dostonlaridan keng foydalanildi.

Kalit so’zlar: dostonlar, mifologiya.

ANALYSIS OF THE MYTHOLOGY OF THE TURKISH PEOPLES IN "KORKUT
ATA" AND OTHER EPISTLES

Abstract. The article analyzed the mythology of the Turkic peoples based on the epics and legends of the Turkic peoples. Epics of a number of other Turkic peoples, such as "Qo’rqut Ota", were widely used.

Key words: epics, mythology.

АНАЛИЗ МИФОЛОГИИ ТЮРЦКИХ НАРОДОВ В «КОРКУТЕ АТА» И ДРУГИХ
ПОСЛАНИЯХ

Аннотация. В статье проанализирована мифология тюркских народов на основе эпосов и легенд тюркских народов. Широко использовались эпосы ряда других тюркских народов, например «Куркут Ота».

Ключевые слова: былины, мифология.

Qadim zamonlardan turkiy xalqlar o’zlarining boy ma’naviy merosi va xalq og’zaki ijodi bilan boshqa xalqlarga qaraganda ancha qadimiyroqligi bilan ajralib turgan. Ularning ko’chma turmush-tarzi va ijtimoiy hayoti dostonlarda o’z aksini topgan. Xususan, ularning ichida o’zining ko’hnaligi va mashhurligi bilan turkiy xalqlarning boshqa dostonlaridan ajralib turadigan doston bu, shubhasiz, “Deda Qo’rqut” yoki xalq orasidagi boshqa nomlari “Qo’rqut ota”, “O’g’uznoma” dir. Mazkur doston o’g’uz qabilalarining xalq og’zaki ijodi mahsuli bo’lib, shuning uchun Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya va Kavkaz xalqlarining ma’naviy merosida juda muhim ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari turkiy mifologiyaga qadim zamonlardagi turkiy va mo'g'il xalqlarining ko'chmanchi va jangovor ruhi bilan bog'liq boshqa ijtimoiy va madaniy tuzilmalar bilan bir qatorda tengrizm va shomonizmning ham ta'siri katta bo'lgan. Turkiy mifologik qahramonlarga ishonish, asosan, islom dini tarqalgungacha bo'lgan davrda keng tarqalgan.

Turkiy xalqlar dostonlarida turli xildagi afsonalar o'z aksini topgan. Xususan, "Kulrang bo'ri" haqidagi afsonada turkiy xalqlarda muqaddas hisoblangan bo'ri bilan bog'liq voqealar yoritilgan. Bo'ri turkiy xalqlarda sharaf-shon va ona ramzi sanaladi. "Ergeneko'n" afsonasi esa qadimgi turkiy xalqlarning katta inqirozi va musibatlari haqida hikoya qiladi. Mag'lubiyatga uchragan turkiy xalqlarga bir necha asrlar davomida boshpana vazifasini o'taydi. Oradan vaqtlar o'tib bir temirchi tog'ni eritib chiqish yo'lini ochadi va Kulrang bo'ri ularni qutqaradi.

Har bir xalq madaniyatida afsonaviy mavjudotlar uchraydi. Shlardan biri bu yovuz o'rmon iblisi Archuradir. U odam sifatida tasvirlangan, lekin u o'z tashqi ko'rinishini baland daraxtga o'zgartirishga qodir. Archura o'rmon hayvonlari va qushlarni himoya qilishiga va qachon ko'chish kerakligini aytishiga xayol qilishgan. Tabiat bilan bog'liq boshqa xudolar ham mavjud bo'lib, masalan, Yer-Suv xudolari yerni, suvlarni va unumdorlikni nazorat qilgan. Shuningdek, yerosti olamining hukmdori Erlik yovuz ruhlar boshlig'i sifatida tasvirlanadi. Umay esa farzandlar va onalik homiysi bo'lib, turkiy xalqlarda muqaddas ona timsoli sifatida e'tirof etilgan. Bundan tashqari hosildorlik ilohasi Umay haqidagi ta'limotlar ham keng tarqalgan.

Mifologiyada bo'ri obrazi alohida o'rin tutadi. Turkiy xalqlarning ayrim afsonalarida bo'ri ularga yo'l boshchi sifatida tasvirlanib, ba'zan ajdod sifatida qabul qilingan. Bu motiv mashhur "Bo'ri tug'ilgan" afsonasida ham uchraydi.

Turkiy dostonlar esa qahramonlik va tarixiy voqealarni o'zida aks ettiruvchi epik asarlardir. "Alpomish", "Manas", "O'g'uznoma", "Kitabi Dede Qorqud" kabi dostonlar mintaqaviy farqlarga ega bo'lsa-da, umumiy jihatlarga ega. Ushbu dostonlarda qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik va adolat g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Bundan tashqari turkiy mifologiyada hayvonga o'xshash afsonaviy mavjudot borligiga ham ishonishgan hamda Qoraqo'shoq deb nomlangan. Uning tashlandiq uylarda, tuynuklarda yashab, o'z qurbonini olib poylab turishiga ishonib, undan juda qo'rqqanlar.

"Dada Qo'rqud" dostonida yunon mifologiyasidagi siklopga o'xshash bir ko'zli maxluq sifatida tasvirlangan Tepag'oz ham turkiy xalqlar mifologiyasidagi afsonaviy mavjudot hisoblangan.

Qadimgi e'tiqodlarga ko'ra xudolar tomonidan yaratilgan Tulporning ilohiy mavjudot bo'lgan. U yunon mifologiyasidagi Apollonning oti Pegasga o'xshatiladi. Uning qanotlari borligi, ammo yerga tushgandan oddiy otga aylanadi deb o'ylashgan.

Yelbegen nomli ko'p boshli ajdarho haqida ham afsonalar keng tarqalgan bo'lib, so'zning etimologiyasini turkolog olimlar "yel" – "shamol", "begen boke" – "bahaybat ilon" deb izohlashadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasini o'rganish jarayonida ko'rishimiz mumkinki, mifologiya mohiyatan politeistikdir, lekin hukmron tabaqa orasida, asosan, moneteistik din hukmron bo'lin, osmon xudosi Ko'k Tengriga sig'inishgan. Ularda Uchmoq nomli jannatga va Erlik nomli do'zaxga o'xshash joylarni ifodalagan. Ular Osmon va Ko'k Tengri bitta ilohiy xudo sifatida qarashgan. Turkiy dostonlar nafaqat qahramonlik voqealarini aks ettiradi, balki unda mifologik elementlar ham keng o'rin olgan. Masalan, qahramonlarning tug'ilishi ko'pincha mo'jizaviy voqealar bilan bog'liq bo'ladi. Ular hayvonlar yoki ilohiy kuchlar tomonidan asrab-avaylanishi, maxsus qobiliyatlar bilan tug'ilishi yoki osmonda belgilangan taqdiri bo'lishi bilan ajralib turadi.

Ushbu dostonlar xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lib, asrlar davomida shakllangan va keyinchalik yozma adabiyotga aylangan. Ular orqali turkiy xalqlarning qadimiy an'analari, urf-odatlar va madaniy qadriyatlari bugungi kunga yetib kelgan.

Shunday qilib, turkiy mifologiya va dostonlar xalqning tarixiy, madaniy va e'tiqodiy merosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular turkiy xalqlarning birligini mustahkamlash, ularning o'z ildizlarini unutmaslik va madaniyatini asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Xulosa qilganda, har bir xalqning o'tmishi uning kelajagi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Turkiy xalqlarning o'tmishi mushtarakdir hamda ularni bir-biriga bog'lab turguvchi ko'prik bu ularning madaniyati, o'tmishi va tilidir. Shunday ekan, turkiy xalqlar mifologiyasini o'rganish va chuqur tadqiq etish turkologiyaning bugungi kunda oldida turgan muhim vazifalardandir.

REFERENCES

1. "Kitabi Dada Qo'rqut". Boku, 2004.
2. Azmun, Yusuf (29 January 2020). "The New Däda Qorqut Tales from the Recently-Found Third Manuscript of the Book of Däda Qorqut". *Journal of Old Turkic Studies*.
3. Bonnefoy, Iv; Doniger, Vendi (1993). *Osiyo mifologiyalari*, Chikago universiteti matbuoti, 315–339-betlar.